



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 15 - dekabr

226-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Qiziriq tumani “Zarbdor” mahallasi hududidan “Qiziriq yoshlar sanoat va tadbirkorlik
zonasi” chegaralarini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-apreldagi PQ-5088-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 23-avgustdagi PQ-5228-son qarorlariga asosan Qiziriq tumani hokimining 2021-yil 6-oktabrdagi 01-04/2715-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. “Qiziriq yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi”ni tashkil etish uchun tumandagi “Zarbdor” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 9a, 19q, 19a,q va 19b,q-dala konturlaridagi 5,0 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni tanlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga “Qiziriq yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi”ni tashkil etish uchun tanlangan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin hamda yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishni ta‘minlasin.

4. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e‘lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.